

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 57 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
<i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich</i>	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
<i>Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov</i>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
<i>Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike</i>	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
<i>Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
<i>Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович</i>	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
<i>Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.</i>	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
<i>G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi</i>	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
<i>Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahammatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek</i>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
<i>Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich</i>	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI

Sarsengalieva Albina Askar Qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: albinasarsengalieva31@gmail.com,

Ilmiy rahbar:

Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich

Qoraqalpoq davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq yukini kamaytirish, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun preferensiyalar joriy etish hamda ayrim tarmoqlarda soliq stavkalarini pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, so'nggi Prezident qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik dinamikasi hamda davlat byudjeti tushumlariga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, soliq siyosati, soliq imtiyozlari, soliq yukini kamaytirish, bandlik dinamikasi.

Abstract: This article analyzes the economic efficiency of tax incentives provided to small businesses and entrepreneurial entities in Uzbekistan. The study examines mechanisms for stimulating entrepreneurial activity through reducing the tax burden, introducing preferences for newly established enterprises, and lowering tax rates in certain sectors of the economy. Based on recent presidential decrees and regulatory legal documents, the contribution of small businesses to gross domestic product, employment dynamics, and state budget revenues is assessed using statistical data. The results indicate that tax incentives play an important role in promoting business development, creating new jobs, and ensuring sustainable economic growth.

Keywords: small business, entrepreneurial entities, tax policy, tax incentives, tax burden reduction, employment dynamics.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая эффективность налоговых льгот, предоставляемых субъектам малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане. Рассматриваются механизмы стимулирования предпринимательской деятельности посредством снижения налоговой нагрузки, введения преференций для вновь созданных предприятий, а также уменьшения налоговых ставок в отдельных отраслях экономики. На основе последних указов Президента и нормативно-правовых документов проведена оценка влияния малого бизнеса на долю в валовом внутреннем продукте, динамику занятости и поступления в государственный бюджет с использованием статистических данных. Результаты исследования показывают, что налоговые льготы играют важную роль в развитии предпринимательства, создании новых рабочих мест и обеспечении экономического роста.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательские субъекты, налоговая политика, налоговые льготы, снижение налоговой нагрузки, динамика занятости.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda milliy iqtisodiyotning eng muhim tayanchlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan, iqtisodiyotni



modernizatsiya qilish hamda raqobatbardoshligini oshirish jarayonlarida kichik biznes sektori iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Shu bois davlat tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini yengillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Xususan, soliq siyosati doirasida berilayotgan imtiyozlar kichik biznesning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki mazkur imtiyozlar, bir tomondan, tadbirkorlar uchun moliyaviy yukni kamaytirsa, ikkinchi tomondan, yangi korxonalarning tashkil etilishi, bandlik darajasining oshishi hamda raqobat muhitining rivojlanishiga zamin yaratadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes milliy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes umumiy ishlab chiqarish hajmining 60–70 foizini, ish o'rinlarining esa 50–60 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar kichik biznesning iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yaqqol namoyon etadi [1].

Tadbirkorlik subyektlari har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kichik biznesni soliqqa tortish tizimi adolatli, shaffof va samarali bo'lishi zarur. Soliqqa tortish tizimi tadbirkorlik muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda uning rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Soliq tizimining to'g'ri tashkil etilishi kichik biznesning barqaror rivojlanishiga hamda iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shishiga imkon yaratadi. Aks holda esa yashirin iqtisodiyot hajmining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning nazariy asoslarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu kelajakda eng maqbul soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur maqolada kichik biznes uchun mavjud soliq tizimlari, ularning samaradorligi hamda tadbirkorlik rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, soliq yukini kamaytirish va biznesni rag'batlantirish bo'yicha ilg'or yondashuvlar ko'rib chiqilib, optimal soliq strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar beriladi [2].

Ma'lumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim fiskal instrumentlaridan biri soliqlar hisoblanadi. Soliqlar, bir tomondan, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim rol o'ynasa, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish, ularning iste'mol va jamg'arish jarayonlarini tartibga solishda ham muhim vosita hisoblanadi.

So'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish jarayonida kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qulay moliyaviy muhitni shakllantirish maqsadida ularning soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda soliqlarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Rivojlanish strategiyalarida belgilangan ustuvor vazifalar doirasida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida innovatsion omillarning roli tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayon kichik biznes taraqqiyotining innovatsion yo'nalishlarida ham namoyon bo'lib, ularning soliqqa tortish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va isloh qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq imtiyozlari kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun muhim moliyaviy yengillik yaratadi. Bu esa ularning faoliyatini kengaytirish, yangi mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Natijada tadbirkorlar ko'proq sarmoya kiritadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligi ortadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi, bu esa aholi bandligining oshishiga hamda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari yangi tadbirkorlarni bozorga jalb etadi, kichik biznes faoliyatini rag'batlantiradi va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Shu tariqa, kichik tadbirkorlik subyektlariga beriladigan imtiyozlar mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga, raqobat muhitining shakllanishiga hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy olimlardan D. G'ofurov o'zining "Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash" nomli maqolasida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlarining samaradorligini tahlil qilgan. Muallifning fikriga ko'ra, soliq imtiyozlari qisqa muddatda davlat byudjeti tushumlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy faollikni kuchaytirishi, tadbirkorlik muhitini yaxshilashi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi bilan ijobiy baholanadi [4].

U. Karimov (2019) tomonidan yozilgan "Soliq siyosatining kichik biznes rivojlanishiga ta'siri" nomli ilmiy ishida ham kichik biznes rivojlanishiga soliqqa tortish tizimining ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda mamlakatimizda amal qilayotgan soliqqa tortish amaliyoti, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun mavjud soliq imtiyozlari hamda ularning samaradorligi tahliliy jihatdan o'rganilgan [5].

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlar O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Jumladan, 2025-yil 19-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan PF–50-son Farmon kichik va o'rta biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi strategik



ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan [6]. Ushbu hujjat mamlakatning soliq siyosati va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimida muhim huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-229-son Farmoniga muvofiq soliq imtiyozlari tizimini yanada takomillashtirish, ularni berishning aniq mezon va shartlarini belgilash hamda soliq siyosatining shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asos yaratildi [7]. Mazkur hujjat soliq qonunchiligi doirasida imtiyozlardan foydalanish shartlarini aniqlashtirish hamda soliq organlari faoliyatini takomillashtirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, u kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kichik biznes va kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullari tashkil etadi.

Avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining mazmuni tahlil qilinib, ularda belgilangan soliq imtiyozlari hamda tadbirkorlikni rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyati baholandi.

Tadqiqot jarayonida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasi hamda byudjet tushumlariga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida dinamik tahlil qilindi. Ko'rsatkichlarning yillar kesimidagi o'zgarishi o'rganilib, soliq yukini kamaytirish va soliq stavkalarini pasaytirish choralarining natijadorligi aniqlashtirildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida soliq imtiyozlari joriy etilgan davr ko'rsatkichlari undan oldingi davr ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Bu orqali imtiyozlarning bandlik darajasi, iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik faolligiga ta'siri aniqlab berildi.

Tizimli yondashuv asosida soliq siyosati hamda kichik biznes rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks ravishda o'rganildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish orqali soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi hamda ularning kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliqlar, bir tomondan, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlarini tartibga solishda muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda soliq tizimidagi islohotlar doirasida kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qulay moliyaviy muhitni shakllantirish maqsadida ular zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda soliqlarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Rivojlanish strategiyalarida belgilangan ustuvor vazifalar doirasida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida innovatsion omillarning roli tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayon iqtisodiy tizim konfiguratsiyasining o'zgarishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlari uchun bir nechta soliq turlari amal qiladi. Jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), daromad solig'i hamda ijtimoiy soliq asosiy soliq turlari hisoblanadi. Kichik biznes uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan soliqlardan biri yuridik shaxslar foyda solig'i hisoblanadi. 2025-yil holatiga ko'ra, mazkur soliq stavkasi 15 foizni tashkil etadi. Bu nisbatan past stavka kichik biznes subyektlari uchun muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ham kichik biznes uchun muhim ahamiyatga ega. 2025-yilga ko'ra, O'zbekistonda QQS stavkasi 12 foizni tashkil etadi. Kichik biznes subyektlari yirik korxonalar singari QQS to'lovlarini hisobga olish va unga rioya qilishlari talab etiladi. QQS to'lovlari xarajatlarni boshqarishda strategik ahamiyatga ega bo'lib, kichik biznes subyektlarining likvidligiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Daromad solig'i ham kichik biznes subyektlari uchun muhim soliq turlaridan biri hisoblanadi. Jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i stavkasi 12 foizni tashkil etadi. Mazkur stavkaning nisbatan pastligi kichik biznes egalari o'z faoliyatini kengaytirish va investitsiya imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy soliq ham kichik biznes uchun dolzarb soliq turlaridan biridir. Ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizni tashkil etadi va asosan ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoya qilish hamda davlat tomonidan ijtimoiy yordam tizimini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Mazkur soliq ish beruvchilarning mehnat xarajatlari oshirishi mumkin bo'lsa-da, boshqa tomondan ijtimoiy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlari uchun soliq yukining mavjudligi hamda soliq majburiyatlarini aniq hisob-kitob qilish zarurati ularning iqtisodiy salohiyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, soliq



imtiyozlari va preferensiyalar kichik korxonalar uchun barqaror va qulay iqtisodiy muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, yangi tashkil etilgan biznes subyektlari uchun bir necha yil davomida beriladigan soliq imtiyozlari tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy yukni kamaytiradi hamda biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi (YalIM) ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Bundan tashqari, davlat tomonidan olib borilayotgan soliq siyosati natijasida kichik biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar kengayib bormoqda. Xususan, kichik va o'rta korxonalar uchun soliq yukini kamaytirish hamda byurokratik to'siqlarni qisqartirishga qaratilgan strategiyalar izchil amalga oshirilmoqda.

Soliq to'lovlarini yengillashtirish va iqtisodiyotning turli sohalarini rag'batlantirish orqali kichik biznes subyektlarining iqtisodiy inqirozlar va bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini oshirish maqsadida turli davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Muayyan sohalarida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari uchun vaqtincha soliq imtiyozlarini joriy etish esa ularning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, soliqlar va soliq siyosati kichik biznes rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Soliq siyosatini strategik boshqarish kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga, ularning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirishga hamda milliy iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shishiga xizmat qiladi [8].

Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha soliq preferensiyalari berilishi belgilangan. Unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari foyda solig'ini hisoblash jarayonida o'z mablag'lari hisobidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog'liq xarajatlarni mazkur binolar qiymatini amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlar tarkibiga kiritish huquqiga ega [9].

Quyidagi jadvalda bandlik dinamikasi bo'yicha yillar kesimida ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval. Kichik bizne sektorida bandlik dinamikasi (ming kishi)

Yillar	Kichik biznesda bandlar (ming kishi)	Umumiy bandlikdagi ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
2019	8 200	58,5	2,9
2020	8 450	59,1	3,0
2021	8 720	60,2	3,2
2022	9 150	61,8	4,9
2023	9 680	63,4	5,8
2024	9 970	64,9	6,7


Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes sektorida bandlik barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2019–2024-yillar davomida ushbu sektorda bandlar soni 18 foizga oshgan bo'lib, bu yillik o'rtacha 4,5 foizlik o'sishga tengdir. Soliq imtiyozlarining ta'siri ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki 2022-yildan boshlab qo'shimcha imtiyozlar joriy etilgach, bandlik o'sish sur'atlari sezilarli darajada tezlashgan.

Bandlikning o'sish sur'ati yil sayin ortib borganligi soliq imtiyozlarining iqtisodiy faollikka ijobiy ta'siri kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Lee va Gordon (2014) tomonidan ishlab chiqilgan "soliq samaradorlik indeksi" metodologiyasiga ko'ra, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 6,8 ni tashkil etgan bo'lib, bu xalqaro mezonlar bo'yicha nisbatan yuqori natija hisoblanadi.

Kichik biznes uchun joriy etilgan soliq imtiyozlari qisqa muddatda byudjet tushumlarida ma'lum darajadagi kamayishni keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa-da, o'rta va uzoq muddatda sezilarli iqtisodiy hamda ijtimoiy samaralar beradi. Xususan, yalpi ichki mahsulotdagi ulushning ortishi, soliq tushumlarining barqaror dinamikasi, yangi korxonalar sonining ko'payishi hamda bandlik darajasining oshishi mazkur mexanizmni samarali iqtisodiy vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bois kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatida soliq imtiyozlarini yanada takomillashtirish, ularni qo'llashda selektiv yondashuvni kuchaytirish hamda samaradorlikni oshirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi [10].



1-rasm. Kichik tadbirkorlik va biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (23.02.2025)

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar–mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 145 835,3 mlrd so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lib, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 45,6 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi hamda unga nisbatan olib borilayotgan soliq siyosatining natijadorligini baholash imkonini beradi.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinadigan bo'lsa, kichik biznesda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning 55,1 foizi xizmatlar sohasiga, 20,1 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga, 13,4 foizi sanoatga hamda 11,4 foizi qurilish sohasiga to'g'ri kelmoqda. Mazkur tarkibiy tuzilma soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan soliq rejimlari, ayniqsa xizmatlar sohasida, tadbirkorlik faolligini rag'batlantirayotganini ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohasida soliq yukining nisbatan pastligi va hisob-kitoblarning soddalashtirilgan tartibi yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishini tezlashtirmoqda.

Sanoat va qurilish tarmoqlarida ham kichik biznesning salmoqli ulushi mavjudligi ushbu sohalarida qo'llanilayotgan maqsadli soliq imtiyozlarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda investitsiya faolligini oshirishdagi rolini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida esa soliq yengilliklari va alohida soliq rejimlari kichik ishlab chiqaruvchilarning rasmiy iqtisodiyotga kirib kelishiga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, kichik biznes subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlarining samaradorligi ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortib borishi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq imtiyozlari qisqa muddatda davlat byudjeti tushumlarining kamayishiga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda soliq bazasining kengayishi orqali davlat byudjeti barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, keltirilgan statistik ma'lumotlar kichik biznesga nisbatan olib borilayotgan soliq siyosati iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Bu holat soliq imtiyozlarining ma'lum darajada samarali ekanini tasdiqlovchi empirik dalil sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida soliq yukining kamaytirilishi, soddalashtirilgan soliq rejimlarining joriy etilishi hamda ayrim tarmoqlarda maqsadli imtiyozlarning qo'llanilishi kichik biznes faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 45–50 foiz atrofida shakllanib, bandlik darajasi barqaror o'sib bormoqda hamda yangi xo'jalik yurituvchi subyektlar soni ortib bormoqda. Ushbu holat soliq imtiyozlarining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, xizmatlar sohasida kichik biznes ulushining yuqori darajada ekanligi soddalashtirilgan soliq mexanizmlarining tadbirkorlik faolligini oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.



Shu bilan birga, soliq imtiyozlari qisqa muddatda davlat byudjeti tushumlarining ma'lum darajada kamayishiga olib kelishi mumkin. Biroq o'rta va uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmining kengayishi, investitsiya faolligining ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda soliq bazasining kengayishi orqali davlat byudjeti barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, soliq imtiyozlari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali fiskal instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Soliq imtiyozlarini maqsadli va selektiv asosda qo'llash zarur. Imtiyozlar yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi, eksportbop hamda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlariga ustuvor ravishda yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

- Berilayotgan soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish mexanizmini joriy etish lozim. Har bir imtiyozning yalpi ichki mahsulot, bandlik va byudjet tushumlariga ta'siri monitoring qilinishi, samarasiz imtiyozlar esa bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqilishi zarur.

- Soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirish va raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hisobot tizimlarini takomillashtirish hamda avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini kengaytirish tadbirkorlik faoliyatini yengillashtirishga va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

- Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari uchun faoliyatning dastlabki bosqichida vaqtinchalik soliq yengilliklarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

- Hududlar kesimida differensial soliq siyosatini qo'llash maqsadga muvofiq. Iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan hududlarda qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi.

- Soliq imtiyozlarini boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish zarur. Kreditlar, subsidiyalar va grantlar bilan birgalikda qo'llaniladigan soliq preferensiyalari ularning samaradorligini yanada oshiradi.

- Rasmiy faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish orqali soliq bazasini kengaytirish hamda davlat byudjeti daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, soliq imtiyozlarini tizimli va ilmiy asosda takomillashtirish kichik biznesning barqaror rivojlanishiga, bandlik darajasining oshishiga hamda davlat moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati

1. G'ofurov D. Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash // Advanced Economics and Pedagogical Technologies. – 2024. – T. 2. – № 5. – B. 191–200.
2. Turanboyev B. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning nazariy jihatlarini // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – T. 13. – B. 26–29.
3. Orziqulov I., va boshqalar. Kichik biznes subyektlarida berilayotgan soliq imtiyozlari va soliq siyosati // Sanoat va texnika sohalarida olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari. – 2025. – T. 1. – № 1. – B. 10–13.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF–50-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738?ONDATE=27.12.2025>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF–224-son Farmoni.
6. Yuldashevna A.O., Nilufar R. Kichik biznesni rivojlantirishda soliq to'lovlarining ahamiyati // Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali. – 2026. – T. 2. – № 6. – B. 134–137.
7. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). – Toshkent, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – URL: www.stat.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100